

DAVID IGLMENNING MIYA. SIZNING HIKOYANGIZ ASARIDA UCHRAYDIGAN LEKSIK SEMANTIK TRANSFORMATSIYALAR TAHLILI

Termez davlat universiteti
Suvonova Hulkaroyim Tursunali qizi
+998882260009
Suvonovahulkaroyim@gmail.com

Annotatsiya: Bu maqolada ‘Miya.Sizning hikoyangiz’ asarida miya faoliyatining to’liq tasviri aks etgan. Bu asarda chaqaloqlarning miyasidan tortib Yoshi katta odamlarning miya faoliyati haqida so’z boradi. Bu maqolada bizga miya faoliyatimizni qay yo’sinda olib borishimizni aniq namoyon etadi.

Kalit so’zlar: Leksik transformatsiyalar, semantik transformatsiya, keng ma’noli transformatsiyalar, antonomik tarjimalar, miya faoliyati, nerv hujayralari, chaqaloqlar, hayvonot dunyosi.

L.S.Barxudarov transformatsiyaga ta’rif berar ekan, uni biri ikkinchisining asosida kelib chiqqan til yoki nutq birliklarining o’zaro munosabati deb ataydi. Tarjimadagi transformatsiyaga esa tarjimada ekvivalentlik va adekvatlikni ta’minlash uchun ishlatiladigan tillar aro turli xil almashinishlarga aytiladi deb ta’kidlagan va ularni quyidagi turlarini keltirib o’tgan: [2,210-b]

- 1) O’rin almashtirish (gap tarkibidagi so’z va so’z birikmalarning yoki ergash gap komponentlarining o’rin almashishi);
- 2) Almashtirish (so’z shakllari, gap bo’laklarini almashtirish, qo’shma gaplardagi sintaktik almashtirinishlar, gaplarning qo’shib ketishi, konkretlashtirish, umumlashtirish, sababni natijasi bilan, aksincha, almashtirish, antonym tarjima, kompensatsiya);
- 3) Qo’shish;
- 4) Tushirib qoldirish.

Yana bir olim V.N.Komissarov transformatsiyalarni quyidagi turlarga bo’lgan: [4,182-b]

- 1) Leksik transformatsiyalar (transkripsiya, transliteratsiya, kalka usuli, leksik-semantik almashtirishlar: konkretlashtirish, umumlashtirish va modulatsiya);
- 2) Grammatik transformatsiyalar (so’zma-so’z tarjima, gaplarning qo’shib ketishi, Grammatik almashtirishlar: so’z shakllari, so’z turkumlari, gap bo’laklari);
- 3) Kompleks (leksik-grammatik transformatsiyalar: antonim tarjima, eksplikatsiya (tasviriy tarjima), kompensatsiya).

Yuqorida olimlarning transformatsiyaga oid turli fikrlari bilan tanishib chiqdik.

Shunday qilib, tarjimada turli soʻzma-soʻz, gʻaliv birikmalarni qoʻllashdan qochish, uning oʻrniga adabiy, hamma tushunadigan, yorqin soʻzlarni tarjima qilish uchun leksik transformatsiyalardan foydalaniladi. Leksik transformatsiyalar tarjima nazariyasida soʻzlarni kontekstda almashtirish deb ham yuritiladi. Bunday transformatsiyalarning quyidagi turlari mavjud. 1. konkretlashtirish 2. umumlashtirish. 3. sababning natija bilan, natijaning sabab bilan almashtirilishi. 4. antonimik tarjima. 5. qoʻshish. 6. tushurib qoldirish.

Semantik muammolar falsafiy tafakkur tomonidan qadimgi davrlarda koʻtarilgan va muhokama qilingan. Soʻz maʼnolarining kelib chiqishi, ularning borliq va tafakkur bilan aloqasi haqidagi bahslar antik davrda analogistlar va anomalistlar, oʻrta asrlarda nominalistlar, realistlar, konseptualistlar tomonidan olib borilgan; oʻrta asr sxolastikasi tomonidan ishlab chiqilgan farazlar, yaʼni kontekst va konkret vaziyatga qarab soʻz maʼnosining oʻzgarishi haqidagi taʼlimot shundaydir; XII-XIII-asrlar falsafasi tomonidan ilgari surilgan tafakkurning lingvistik ifodasining adekvatligi va ular oʻrtasidagi qarama-qarshiliklarning kelib chiqishi muammolari, tafakkur va til taraqqiyoti muammolari ana shunday. Ammo bu muammolarning barchasi toʻgʻri tilshunoslik fanlari, masalan, grammatika rivojlanishidan tashqarida muhokama qilindi. Toʻgʻri tilshunoslik nuqtai nazaridan, XIX-asrga qadar, shu jumladan, faqat bitta fan — etimologiya semantika muammolariga toʻxtalib oʻtdi, chunki baʼzi soʻzlarning boshqalardan shakllanishini tushuntirib, u maʼnolardagi oʻzgarishlarni ham qayd etishga, ham tushuntirishga majbur boʻldi. Tilshunoslik leksikaning turli turlarini ajratib koʻrsatadi:

- **Faol leksika.** Shuningdek, unumli leksika deb ham ataladi, bu tilda eng koʻp ishlatiladigan va eng koʻp ishlatiladigan soʻzlardan tashkil topgan, chunki uning maʼnosi barcha maʼruzachilarga maʼlum va maxsus oʻrganish yoki oʻqitishni talab qilmaydi.

- **Passiv leksika.** U retseptiv lugʻat deb ham yuritiladi, chunki u umumiy va kundalik foydalanishda boʻlmagan, ammo tushunchasi nisbatan sodda boʻlgan soʻzlar toʻplamini oʻz ichiga oladi, yaʼni bir-birini tushunish uchun maxsus oʻrganishni talab qilmaydi.

- **Jargon.** Bu maxsus lugʻat, agar siz uni ishlab chiqqan va ishlatadigan jamoaga tegishli boʻlmasangiz, kirish huquqiga ega boʻlmaysiz. Bu, masalan, ilmiy jargon bilan, qamoqxona yoki jinoiy jargon bilan yoki maʼlum bir mamlakat mintaqasiga xos jargon bilan sodir boʻladi.

Faqat XIX-asrning ikkinchi yarmida, nafaqat tovushga, balki tilning „psixologik“ tomoniga qiziqish ortishi munosabati bilan, semantikani oʻzgarishlar haqidagi taʼlimot sifatida ajratib koʻrsatish zarurati tugʻildi. maʼnosi, dastlab faqat soʻzlar (qarang Semantik xususiyat). „Semantika“ atamasining oʻzi fransuz tilshunosi Breal tomonidan kiritilgan. Til semantikasini oʻrganishdagi amaliy vazifalardan biri foydalanuvchining

iltimosiga binoan Internetda ma'lumotni etarli darajada izlash zarurati bilan paydo bo'ldi (qarang: Muvofiqlik). Semantik tahlil nazariyasi iboraning ma'nosini tushunish va qidiruv tizimiga kerakli shaklda so'rov yuborish imkoniyati bilan bog'liq muammolarni hal qilishga qaratilgan.

Leksik va semantik transformatsiyaga misollar keltirishimiz mumkin. 1. Keng ma'noli transformatsiyalar.

Find so'zini oladigan bo'lsak, u topmoq, hisoblanmoq, aniqlamoq va yana bir qancha ma'nolarini misol keltirish mumkin.

Face so'zi esa –ot shaklida yuz, chehra; fe'l shaklida esa yuzlanmoq, duch kelmoq, sodir etmoq;

Cry so'zi – yig'lamoq, ba'zan esa baqirmoq, chinqirmoq degan ma'nolarini anglatadi

2. Umumlashtirish- sinaps hujayrasining 50 %i miyamizda orqaga qaytadi. Bunda shu 50%ini o'rniga yarim so'zini qo'yish ham mumkin.

3. Mantiqiy aloqa -bugun biz kutubxonaga bordik, kitob oldik va uni o'qib chiqdik. Bu gapni biz bugun kutubxonada kitob o'qidik deb umumlashtirsak bo'ladi.

4. Antonimik tarjima-biz Tokioda nima uchun ba'zi bir hayvonlarni topmasligimiz kerak. Bu gap inkor shaklida yozilgani bilan ma'nosi to'g'ri shaklda tushuniladi.

5. Kompensatsiya- 'LIVEWIRING' so'zini oladigan bo'lsak, asliy tarjimasini hayotni simga ulash degan ma'noni anglatadi. Lekin bu uning to'g'ri muqobil varianti emas. Shuning uchun uni hayotga bog'lanish deb tarjima qilsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, semantika tilshunoslikning asosiy sohalaridan bir bo'lib, unda har bir konsept o'ziga hos tarzda o'rganiladi va semantic maydonlarga ajratiladi. So'z va atamalarni semantik maydonlarga ajratish, shu so'zlarning o'rganilish darajasini osonlashtiradi. Bunda umumxalq tilidagi badiiy tasvirga favqulodda mos birliklarni to'g'ri tanlash, saralash va sayqallash asosida, lisoniy-badiiy qonuniyatlardan kelib chiqqan holda ularga yuklangan xilma-xil badiiy-estetik ma'nolar asosiy hal qiluvchi rol o'ynaydi. Agar so'z - bu til birligi bo'lsa, u holda matn - kommunikatsiya ya'ni aloqa, fikr almashinuvi birligi hisoblanadi deya olamiz. Chunki so'zlar muayyan ma'noga, matnlar esa muayyan mazmunga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'ofurov I., Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, 'Tafakkur bo'stoni', 2012, 108-bet.
2. Barxudarov L.S. Til va tarjima .M., Xalqaro munosabat, 1975, 45-210-bet.
3. David Iglmen. Miya. Sizning hikoyangiz.
4. Komissarov V.N. Tarjima haqida so'z. M., Xalqaro munosabat, 1973, 182-b